O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI


AKADEMIK LITSEYI

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

ADABIYOTI FANIDAN O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

(Milliy sertifikat imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rish uchun)

Mualliflar: O.Raimjonov
A.Qurbonov



2025-2026-o‘quv yili

Сканировано с CamScanner

Scanned with CamScanner

Mazkur o‘quv-qo‘llanma maktab va akademik litseylarda dars beruvchi soha mutaxassislarga hamda adabiyot fanidan chuqurlashtirib o‘tiladigan yo‘nalishdagi o‘quvchilar uchun **amaliy** darslarda foydalanish uchun mo‘jallangan.

Taqrizchi: J.Sayidolimov
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tuzuvchilar: O.Raimjonov
A.Qurbonov

Ushbu o‘quv-qo‘llanma **Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi pedagogik kengashining** 2025-yil 30-dekabrdagi 5-sonli yig‘ilishida o‘quv jarayoniga qo‘llashga tavsiya etiladi.

Сканировано с CamScanner

Scanned with CamScanner

OLIY TA’LIM MUASSASALARI BAKALAVRIATIGA KIRISH TEST SINOVLARIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN FOYDALANILADIGAN TEST VARIANTI TAFSILOTI

1. Test variantining qo‘llanish maqsadi.

Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga kirish test sinovlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlari hamda ona tili va adabiyot faniga oid umumta’lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo‘ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo‘luvchi me’yoriy hujjatlar:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori;

– Ona tili va adabiyot faniga oid amaldagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.

3. Ona tili va adabiyot fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Ona tili va adabiyot fanidan **mutaxassislik** hamda **majburiy fan** sifatida shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi va ta’limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo‘naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	**Fan mazmuni tarkibi**
	1. ADABIYOT
1.1	**Xalq og‘zaki ijodi.** Xalq og ‘zaki ijodi tushunchasi. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari. Xalq og‘zaki ijodining tur va janrlari. O‘zbek xalq dostonlari. “Ravshan” dostoni.
1.2	**Mumtoz adabiyot namunalari, ularning badiiy tahlili va muallif ijodiga oid ma’lumotlar.** Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo‘lgan adabiyot.Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Alisher Navoiy lirikasi. Navoiyning epik asarlari. Xamsachilik tarixi. Alisher Navoiy “Xamsa”si**.** Boborahim Mashrabning hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi. Nodiraning hayoti va ijodi. Nodira lirikasi.Jahon Otin Uvaysiyning hayoti va ijodi. Uvaysiy lirikasi.

1.3	**XX asr o‘zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti namunalari, ularning badiiy tahlili va muallif ijodiga oid ma’lumotlar.** Jadid adabiyoti. Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Nasriy, she’riy, dramatik asarlarning badiiy tahlili. Abdulla Avloniyning hayoti va ijodiy faoliyati. Avloniy she’riyati, “Ikkinchi muallim” asari.Hamza Hakimzoda Niyoziy ning hayoti va ijodiy faoliyati. Hamza she’riyati. Abdulhamid Cho‘lpon ning hayoti va ijodiy faoliyati. Cho‘lponning lirikasi.
1.4	**Zamonaviy adabiyot**. Nasr. Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Nasriy asarlarning badiiy tahlili. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. Abdulla Qahhor hikoyalari. Asqad Muxtorning hayoti va ijodi. Odil Yoqubovning hayoti va ijodi. O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani. O‘lmas Umarbekovning hayoti va ijodi. “Qiyomat qarz” hikoyasi.
	Zamonaviy adabiyot. She’riyat. Shoirlar ijodiga oid ma’lumotlar. Lirik, liro-epik asarlarning badiiy tahlili. Mirtemirning hayoti va ijodi. Mirtemirning she’riyati. Asqad Muxtor hayoti va ijodi. Asqad Muxtor she’riyati. Zulfiyaning hayoti va ijodi. Zulfiya she’riyati. Saida Zunnunova hayoti va ijodi. S.Zunnunova she’riyati. Shuhratning hayoti va ijodi. Shuhratning “Mardlik afsonasi” balladasi. Xayriddin Salohning hayoti va ijodi. X.Saloh she’riyati. To ‘ra Sulaymonning hayot va ijodi. T.Sulaymon she’riyati.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari yuzasidan savol-javoblar to‘plami

1. “Kecha va kunduz” asarining janri nima?
Roman
2. Asarga qanday maqol epigraf qilib olingan?
Hamal keldi – amal keldi
3. “ Kecha va kunduz” asari qanday boshlanadi?
Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...
4. Cho‘plon bahor ta’rifini keltirar ekan, qaysi obrazning g‘amli yuzi kuldi deb e’tirof etadi?
Muz tagida loyqalanib oqqan suvning
5. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi qanday nash’a beradi deyilgan?
Birinchi ochilgan bodroq nash’asini beradi
6. Zebining to‘liq ismi nima?
Zebinisa
7. Asar boshida Zebi necha yosh deb aytilgan?
15 yosh
8. Halol-haromning ko‘p ham farqiga bormaydigan obraz kim?
Razzoq so‘fi
9. Saltining to‘liq ismi nima?
Saltanat
10. Saltanatning erta sahardan Zebilarnikiga halloslab kelishiga nima sabab bo‘ladi?
Zebini qishloqqa mehmonga olib bormoqchi edi
11. Zebiga nisbatan “jonim qaqa” deb murojaat qilgan obraz kim?
Saltanat
12. Saltanat Zebini kimnikiga mehmonga olib bormoqchi edi?
Enaxonlarnikiga
13. Enaxon qayerlik edi?
Yoyilma soylik
14. Zebining onasi kim?
Qurbonbibi

15. Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo‘lsa, Zebiga tilaydigan obraz kim?
Qurbonbibi
16. Razzoq so‘figa eng ma’qul bir masalani bo‘lsa ham uqtirib, roziligini olmoq uchun kim bo‘lish kerak edi? O‘zining piri, yoki katta bir davlatlik kishi
17. Qaysi obraz o‘z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emas?
Razzoq so‘fi
18. “ Bir qo‘lida supurgi, bir qo‘li tizzasida... Ko‘ngil, orzu, sevgi, sevinch... hammasi Saltiga tomon uchadi” ushbu parcha kim haqida?
Zebi
19. O‘z uyining qabristonlar qadar jim-jit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mraygan bo‘lishini istagan obraz kim?
Razzoq so‘fi
20. Qaysi obraz jadidnamo deb tar’iflangan?
Razzoq so‘fi
21. Zebi va Salti hovlida qiyqirib o‘ynashayotganda Razzoq so‘fi kelib qoladi. Shu paytda ikki qiz nimaga o‘xshab qotib qoladi?
Chaqmoq tekkan daraxtdek
22. Ko‘rgazmaga qo‘yiladigan antiqa maxluq kim?
Razzoq so‘fi
23. Xotin-xalaj orasida sho‘xligi va hazilkashligi bilan dong chiqargan obraz kim?
Hamro ena
24. Razzoq so‘fini birinchi daf’a yo‘rgaklagan obraz kim?
Hamro ena
25. “Aylanay mehmon, kimdan xafa bo‘lib tushdingiz? Ayting! Qovog‘ingizni ochsangiz-chi! Yorug‘ dunyoga keldingiz! Shukr qiling! Sevining!

Mundoq bir kuling!” ushbu so‘zlar kim tomonidan kimga qarata aytilgan?
Hamro buvi Razzoq so‘figa
26. O‘zidan ulug‘ va kuchlilar gapirsa, “ hovva-hovva” deydigan, o‘zidan kichiklar gapirsa, “Yo‘q-yo‘q” ma’nosini anglatadigan qilib bosh chayqaydigan obraz kim?
Razzoq so‘fi
27. Inson jismidagi eng aziz va tabarruk azolar qaysilar?
Og‘iz va til
28. O ‘zbeklarda har bir erkak o‘z xotinini qanday chaqiradi?
O‘g‘li yo qizining ismi bilan
29. Razzoq so‘fi xotinini qanday chaqiradi?
Fitna deb chaqiradi
30. Ishq ikki xil bo‘ladi, ishqi majoziy va ishqi haqiqiy... ushbu jumla kimga tegishli?
Razzoq so‘fi
31. O‘zi juda kamgap ammo g‘ashiga tegilsa go‘rda ham gapiradigan obraz kim?
Razzoq so‘fi
32. Eshon qonaqohida maza qilib uxlaydigan so ‘fini kimlar ko‘rpa-to‘shagi bilan hovuzga tashlashadi?
Muridlar
33. Asarda nima Qashqardan ham olis deb ta’riflangan?
Qish kechasi
34. Buyuk falsafada uyqu qanday ta’riflanadi?
Uyqu – umrning tanobi!
35. O‘z uyidan boshqa yerda bir kecha ham uxlamaydigan obraz kim?
Razzoq so‘fi
36. Razzoq so‘fi besh-to‘rt kun qishloqqa ketganda ?
Qurvonbibi “dam oladi” Zebi “yayraydi”
37. Hast so‘zining ma’nosi nima?
Eshon so‘ziga qo‘shib aytilgan, Hazrati so‘zining qisqartirib aytilgan shakli
38. Vatanni sevmoq – imondandir! Ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Razzoq so‘fi
39. Dunyoda vatani yo‘q kim?
Lo‘li
40. Razzoq so‘fining hovli-joyi kimdan qolgan edi?
Qaynotasidan
41. “ Uning ma’lum bir kasbi, hunari yo‘q. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi”. Ushbu ta’rif kimga tegishli?
Razzoq so‘fi
42. “U – xudoyimning sevgan quli, noz-u ne’mat to‘rt tarafdan suvday oqib turadi. Daryo bo‘yidamiz-u chanqaymizmi?” ushbu ta’rif kim haqida va kim aytgan?
Eshon haqida Razzoq so‘fi aytgan

43. Razzoq so‘fi nima sababda shaharga kelib qolgan edi?
Akasi bilan yer talashib uydan chiqib ketadi
44. Asarda yerdan aziz narsa yo‘q jumlasi kimning tilidan aytilgan?
Razzoq so‘fining akasi
45. “O‘lim – haq! O‘lar vaqtda bir-birimizdan yiroq tushib, bir-birimizga tashna tushib o‘lmaylik” Ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Razzoq so‘fining akasi
46. Asarda qurilganiga 170 yil bo‘lgan bino qaysi?
Umarali shig‘ovulning hammomi
47. Sanamay sakkiz dema naqli asarda kimning tilidan aytilgan?
Zebi
48. Razzoq so‘fi qanday shart bilan Zebini qishloqqa borishiga rozi bo‘ladi?
Nomahramga ovozini eshittirmaslik
49. Qizlarni qishloqqa kim olib boradi?
O‘lmasjon
50. Qumri kim?
Saltanatning o‘rtog‘i
51. Asarda nima daraxtlarda zo‘rg‘a osilib turgan kuzgi yaproqlarga o‘xshatilgan?
O ‘lmasjonning qo‘lidagi qamchi
52. Qizlar Enaxonlarnikiga kunning qaysi pallasida kirib borishadi?

Yarim kechasi
53. Qizlarga ko‘z-quloq qilib berilgan kampir kim edi?
Sarvibibi
54. Enaxonning otasi kim?
Aytilmagan, Enaxonning yoshligida o‘lib ketgan deyilgan
55. Enaxonning akasi kim?
Xolmat
56. Eng o‘yinqaroq bola vaqtlarida ham butun qishloqning podasini boqib oilaning ehtiyojlariga biror narsa qo‘shib turgan obraz kim?
Xolmat
57. Xolmatning yeri kimdan qolgan edi?
Qaynotasidan
58. Enaxonlar oilada necha jon edi?
6 jon
59. Xolmatning nechta farzandi bor edi?
Ikkita: bir o‘g‘il va bir qiz
60. Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi deb kim aytdi. Gadoy podsho bo‘lishni orzu qilsa, nima bo‘libdi?” ushbu parcha qaysi asardan olingan?
Kecha va kunduz
61. Qizi yoki kelinining ko‘nglida ko‘tarilgan havas oloviga suv sepib turadigan obraz kim?
Xolmatning onasi
62. Qaysi oilalar orasida ota-bobodan qolib ketgan bir do‘stlik, qadrdonlik hukm surardi?
Enaxon va Saltanatlar oilasi orasida
63. Enaxon va yangasi qachon Saltanatlarnikida mehmon bo‘lib qaytishgan edi?
O‘tgan kuz, xirmonlar olingandan keyin
64. Saltanatning otasi qanday kasb bilan shug‘ullanardi?
Ayronchi
65. Mehmonlarni qanday kuzatish haqida maslahat ketgan paytda maslahatchilar nima qilib o‘tirishardi?
Kampir yon yog‘ochini silar, kelin cho‘p bilan yer chizar, Enaxon og‘zidagi saqichini qo‘liga olib soqqa yasar edi
66. Kambag‘allik o‘lsin, kambag‘allik!” Ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Xolmatning onasi
67. Enaxonlar mehmonlarga qanday ovqatlar qilishadi?
Suyuq osh, oshqovoq somsa, palov
68. “Kambag‘al – Xudoyimning suygan bandasi!” Ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Enaxon
69. Asarda kim sayroqi qushchaga o‘xshatilgan?
Zebi
70. Asarda kim o‘limga mahkum odamga o‘xshatilgan?
Zebi
71. Asarda kim o‘zi pakana buning ustiga bukchaygan kampir deyilgan?
Enaxonning onasi
72. Mingboshining kichik xotini kim?
Sultonxon
73. Enaxonlarnikidagi kechada shaharliklardan kim yaxshi o‘ynaydi?
Qumri
74. Sultonxonning yordamchisi kim?
Umrinisabibi
75. Umrinisaning nechta qizi bor edi?
Ikkita
76. Umrinisa katta qizini chiqarganiga qancha bo ‘lgan edi?
Ikki yil
77. Umrinisa Sultonxonning yumushlarini bajarib orttirgan narsalarini nima qilardi?
Kichik qizi uchun sep yig‘ardi
78. Umrinisaning kichik qizi kim?
Bahri
79. Sultonxonning kelin bo‘lib kelganiga qancha bo‘lgan edi?
5 oy
80. Sultonxon Enaxonni mingboshinikidagi bazm bekor bo‘lganini ogohlantirishi evaziga Umrinisaga nima beradi?
Uzugini
81. Mingboshining katta xotini kim?
Xadicha
82. Mingboshining o‘rtancha xotini kim?
Poshshaxon

83. Mingboshiga o‘z xohishi bilan tekkan xotini qaysi?
Xadicha
84. Mingboshi Xadichaxonga uylanganida qanday mansabda ishlardi?
Ellikboshi
85. Mingboshi nima sababdan Xadichaga uylanadi?
Birinchi xotini o‘lib ketgani uchun
86. Mingboshining qizi kim?
Fazilat
87. Fazilatning onasi kim?
Xadicha
88. Asarda Hajga ketib shu yerda qolib ketgan obraz kim?
Xadichaning otasi
89. “ Shapaloqgulli obiravon” asarda keltirilgan ushbu nom nimaning nomi?
Mato nomi
90. Asarda o‘z qishlog‘ini tashlab ketgan obrazlar kimlar?
Akbarali, Razzoq so‘fi
91. Tug‘ilganiga, yoshligida kasal bo‘lib o‘lib ketmaganiga o‘kina-o‘kina mingboshining dargohiga kirib kelgan obraz kim?
Poshshaxon
92. Mingboshinikiga Zebilarni mehmonga aytib, so‘ng fikridan qaytgan obraz kim?
Sultonxon
93. Sultonxonni kim fikridan qaytaradi?
Umrinisa
94. Poshshaxon Xadichaning oldiga nega kiradi?
Sultonxonga qarshi birlashish taklifi bilan
95. Enaxonning kelinbibisiga rashki keladigan obraz kim?
Poshshaxon
96. Akbaralini qanday holatda uchratgan kishi uni mingboshi demas edi?
Ustida to‘ni, belida qilichi bo‘lmasa
97. Qaysi obrazning ko‘zida biroz shapag‘liq asorati bor edi?
Akbaralining
98. Asardagi sartarosh obrazi kim?
To‘xtash
99. “San’at – san’at uchun” ushbu fikr kimga tegishli?
Usta To‘xtashga
100. “ Yetti osilganlar” asarining muallifi kim?
Lioned Andriyev
101. Qaysi obrazning ikki chakkasidan sangillab turgan “kokillar”ni atrofdagilar “ikki osilganlar” deb piching qilardilar?
Akbaralining
102. Ellikboshi bo‘lish uchun Akbarali avvalgi mingboshiga nima hadya etadi?
Yaxshi bir uloqchi ot
103. Akbarali necha yil ellikboshilik qiladi?
6 yil
104. Akbarali Miryoqub bilan qayerda tanishadi?
Ostanaqul boyning qovun saylida
105. Akbarali Miryoqub bilan tanishganidan ikki kun o‘tib Miryoqubning uyiga nimalar yuboradi?
Ikki arava qovun-tarvuz,
Ikki zambar uzum,
Ikki chorakkina qayroqi bug‘doy
106. “Yurtning keksa odamlari o‘zaro so‘zlashganda, bu mamlakatda hech bir xon va xonvachchalar u kabi ko ‘p yurt so‘ramaganligini gapiradi”. Ushbu parchada kim haqida gap ketmoqda?
Akbarali
107. Akbarali necha yildan beri mingboshilik qilayotgan edi?
13 yildan beri
108. “ U aksari piyoda yuradi, yurganda ham negadir shoshilib yuradi. “Assalomu alaykum!” deb dona-dona qilib salom bersangiz, shoshilganidan bo‘lsa kerak, “vass” debgina qo‘yadi”. Ushbu parchada kim haqida gap ketyapti?
Miryoqub
109. Do‘konidan har narsa topiladigan bir baqqolga keksalar nima deb nom qo‘yishgan?
Farang baqqol
110. Miryoqubning laqabi nima?
Epaqa

111. Farzand va esdan mahrum obraz qaysi?
Akbarali
112. Noib to‘raning o‘g‘lini “kofir”ning o‘g‘li ekanligiga qaramay bag‘riga bosib o‘pgan obraz kim?
Akbarali
113. Miryoqubga nima uchun epaqa laqabi berilgan?
Qilmagan ishi yo‘qligi uchun
114. Qishloqda nechta do‘kon bor edi?
Ikkita baqqollik, bitta qassoblik
115. Ikkita baqqollik va bitta qassoblik do‘koni yana qaysi asarda uchraydi?
Oybekning “Bolaning ko‘ngli podsho” hikoyasida
116. Qishloqda nechta samovar bor edi?
Ikkita
117. Qishloqdagi beshta muassasa kimning kuchi bilan aylanardi?
Miryoqubning
118. Miryoqub qanaqa zavodga sherik edi?
Paxta zavodiga
119. Ikki g‘ildirakli sariq faytoncha va sariq yo‘rg‘a kimga tegishli edi?
Miryoqubga
120. Amaldor bo‘lmasa-da doim mingboshi bilan birga yuradigan obraz kim?
Miryoqub
121. Amerikalikka o‘xshatilgan obraz kim?
Miryoqub
122. Miryoqubni kim amerikalikka o‘xshatadi?
Noib to‘ra
123. Noib to‘raning ismi kim?
Feador
124. Noib to‘rani mahalliy xalq nima deb atashar edi?
Parfi to‘ra
125. Asarda kim qorako‘z deb ta’riflanadi?
Miryoqub
126. Akbaralining rus mirzasi kim?
Sokolov
127. Akbaralining inoq mirshabi kim?
Mirzabobo
128. Mingboshining musulmon mirzasi kim?
Hakimjon
129. Asarda “echki” laqabi kimga tegishli?
Yodgorboyga
130. Asarda “puchuq” laqabi kimga tegishli?
Umaraliboyga
131. Aql-u hushi boshqalarnikidan-da ziyoda bo‘lsa-da namoz o‘qimaydigan obraz kim?
Miryoqub
132. Zebining ovozi qaysi payg‘ambarning ovoziga o‘xshatilgan?
Dovud payg‘ambar
133. Asardagi tegirmonchi kim?
Shamsiddin
134. Asarda kim tutqun qushchaga o‘xshatilgan?
Zebi
135. Uyiga qaytayotgan O‘lmasjon Razzoq so‘fining devoridan mo‘ralar edi. Uning maqsadi nima edi?
Zebini ko‘rish
136. Bir kuni devordan mo ‘ralayotgan O‘lmasjonni kishilar ko‘rib qolganda ularga qanday bahona topadi?
Otimga gavron sindiryapman deydi
137. O‘lmasjonni aravakashlikka kirganiga qancha bo‘lgan edi?
4 oy
138. Butun ro‘zg‘orini ichkilikka sovurgan obraz kim?
Ahmadalining katta o‘g‘li
139. “ Pul bo‘lsa, davlating bo‘lsa, og‘zing bilan gapirib topsang... qani edi... bu davlatni xudovandi karim hammaga bermas ekan! Berganga berar ekan!” ushbu gap kimning nutqidan olingan?
O‘lmasjonning otasi
140. Olma pish, og‘zimga tush naqli kimning tilidan aytilgan?
O‘lmasjonning onasi
141. Yelkamda o‘n putdan o‘ttiz put yukim bor deganda mingboshi nimani nazarda tutadi?

Uch xotinini
142. “Ayollarning bilgani irim, bilgani qaytarma, bilgani azayimxon... qovog‘i uchsa ham azayimxonga chopadi.” Ushbu nutq kimga tegishli?
Mingboshi
143. Jadid so‘zining ma’nosi nima?
Yangi
144. Jadidlarning maqsadi nima?
Yurt orasida yangilikni rasm qilarmish
145. Jadidlar kimlar haqida yozishmas edi?
Shamsiddin mingboshi bilan To‘raqul bo‘lus
146. Jadidlar kimni osmonlarga ko‘tarib yozishgan edi?
Abdusamat mingboshi
147. O‘ntacha xotin olib, hozir ham to‘rttasi qo‘lida naqd bo‘lgan obraz kim?
Abdusamat mingboshi
148. O ‘z qishlog‘ida yangi tartibdagi maktab ochgan mingboshi kim?
Abdusamat
149. Qaysi obraz hovlisida muallim saqlab o‘g‘illarini o‘qitadi?
Abdusamat mingboshi
150. Jadidlarning maktabini kim yoptirgan edi?
Noib to‘raning buyrug‘i bilan Akbarali
151. Yiqilgan polvon ham achchig‘ini kulib yengadi jumlasi kimga tegishli?
Miryoqub
152. Pul topiladi, obro‘ topilmaydi jumlasi kimning nutqida uchraydi?
Akbaralining
153. Akbaralini maqtab maqola yozgan kim?
Mulla Rivojiddin
154. Qumariqliklarning ishini bosti-bosti qilgan Miryoqubga epaqa laqabi kamlik qilardi. Unga yangi laqab topish uchun kimlar singari kishi kerak edi?
Navoiy, Jomiy, Mashrab
155. Asarda keltirilishicha Razzoq so‘fi qaysi asarni o‘qiyotgan edi?
Yassaviyni “Hikmat”larini
156. Qaysi asarda birgina qizil olma uchun devor oshib boqqa tushgan yigitcha to‘g‘risidagi ashula uchraydi?
Kecha va kunduz
157. Har yili Hajga borish uchun taraddud qilib, bor puliga un, yog‘ sotib olib yog‘liq kulchalar yoptiradigan, taraddud bitgach safardan voz kechadigan obraz kim?
Razzoq so‘fi
158. “Kichkina mitti, xon xo‘jani yiqitti” ushbu maqol qaysi asarda uchraydi?
Kecha va kunduz
159. Asarda keltirilishicha odam soniday keladigan yo‘g‘on ilonlar qayerda uchraydi?
Buvatavakkal adirida
160. Asarda qaysi obraz kecha botgan quyoshga o‘xshatilgan?
Sultonxon
161. Xulyorang qanaqa rang?
Pushti.
162. Asarda qaysi qahramon tuyaga, burniga ip o‘tkazilgan tuyaga o‘xshatilgan?
Akbarali
163. MINGBOSHINI KIM TUYAGA O‘XSHATADI?
Miryoqub
164. Akbarali mingboshi burniga ip o‘tkazilgan tuya bo‘lsa uning sarboni kim edi?
Miryoqub
165. Dunyoning ustuni nima?
Pul
166. Bir oy mehnat qilib atigi 6 so‘m maosh oladigan Tursunboy qorovul obrazi qaysi asarda uchraydi?
Kecha va kunduz
167. “Ona – bolasini, oshiq – ma’shuqasini, bulbul – gulni, badaviy – tevasini, sarlashkar – qilichini o‘pganday o‘sha chekni o‘ping! Negakim, hamma gap o‘sha chekda, chek – bankada, banka – pulning markazi, pul, agar haqiqatga tobingiz bo‘lsa, “Olloh!” “ Qoziyul hojat!” “. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

Kecha va kunduz
168. Qashqarlik mardikorlar obrazi qaysi asarda uchraydi?
Kecha va kunduz
169. Gimnaziyaning so‘ngi sinfini bitkazolmagan obraz kim?
Mariya
170. Bir yarim ming so‘m pul topish uchun yomon yo‘lga kirgan obraz kim?
Mariya
171. Mariyaga bir yarim ming so‘m pul nega kerak edi?
Peterburg orqali Germaniyaga qochish uchun
172. Asarda kim “Ming bir kecha” asaridagi zolim xonlarga o‘xshatilgan?
Miryoqub
173. “Bu ham Akbarali mingboshiga o‘xshagan minglarcha itlarning biri! Faqat bu bilan Akbarali mishboshi o‘rtasidagi farq shundaki, bu o‘zini undan yuqori oladi. Shu yuqorilik hissi, shu g‘urur – uning o‘zidan itlikni to‘sib turadi, o‘ziga ko‘rsatmaydi, uning o‘zini aldaydi”. Ushbu parcha kim haqida?
Miryoqub
174. Moviy ko‘zli dilbar deb kim ta’riflangan?
Mariya
175. Eski va noyob qo‘lyozmalarni yig‘ishga qiziqqan obraz kim?
Noib to‘ra
176. Miryoqub Noib to‘raga topib bergan uch-to‘rt qimmatbaho narsalarni kimning yordami bilan topgan edi?
Shahobiddin mudarris
177. “Dunyoda hamma odam bolalari biz ikkimizdek bo‘lsalar, dunyo jannat bo‘lardi”. Ushbu jumla kimga tegishli?
Noib to‘raga
178. “ Dunyoda hamma odam bolalari biz ikkimizdek bo‘lsalar, dunyo jannat bo‘lardi”. Ushbu jumla orqali kimlar nazarda tutilgan?
Noib to‘ra va Miryoqub
179. “ O‘ruslar Oqmachitni olib qo‘ydi, deyishganda, -U yurtim necha kunlik yo‘lda? – deb so‘radi. – Bir oylik yo‘lda javobini olgach, - Unday bo‘lsa, menga unaqa olis joydagi yurtning keragi yo‘q. Olsa-olabersin!” degan hukmdor kim?
Xudoyorxon
180. “ Chorasiz dard yo‘q. Olim bilan ishqdan boshqa hamma dardning chorasi bor” Ushbu jumla qaysi asardan olingan?
Kecha va kunduz
181. Asarda Rossiya imperiyasi nimaga o‘xshatilgan?
Ulkan kemaga
182. Asarda urush nimaga o‘xshatilgan?
Dahshatli to ‘lqinga
183. Ertaning g‘amini eshak yeydi naqli qaysi asarda uchraydi?
Kecha va kunduz
184. Noib to‘raning oshpazi kim?
Zunnun
185. Qaysi obrazning kumush boshli hassasi bor edi?
Noib to‘raning
186. Qaysi obraz “ boladay narsa, uni ko‘p ham yolg‘iz qoldirib bo‘lmaydi” deya ta’riflangan?
Akbarali mingboshi
187. “ Men qirqqa borib qoldim. Haligacha bitta boshim ikkita bo‘lgani yo‘q” ushbu nutq kimga tegishli?
Zunnun
188. Miryoqubga Mariyaning pasportini almashtirishga (soxtalashtirishga) kim yordam beradi?
Ignatyuk
189. Miryoqub soxta pasport uchun qancha xarajat qiladi?
O‘n so‘m
190. Soxta pasport kimning nomida edi?
Yevdokiya Zaxarovna Kobilina
191. Soxta pasportda Mariyaning yoshi necha deb ko‘rsatilgan edi?
24 yashar
192. Zunnun Noib to‘raning uyiga kelganda necha yosh edi?
12-13 yashar
193. Noib to‘raning xotinini ismi kim?
Valya
194. Noib to‘raning oilasida necha kishi bor edi?

4 ta : onasi, xotini , o‘g‘li, o‘zi
195. “ U o‘zini goh arslon rangiga, goh qoplon rangiga, goh sher rangiga, goh yer rangiga bo‘yab ko ‘rsatadi”. Ushbu ta’rif kim haqida?
Miryoqub
196. Miryoqub Akbarali mingboshining qaysi xotini bilan o‘ynashib yuradi?
Poshshaxon
197. Miryoqubning Poshshaxon bilan o‘ynashib yurishiga sabab nima edi?
Akbarali kasal, ko‘pga bormaydi, o‘limiga yaqin biror merosxo‘r qolmasligi yo vasiyatga ko‘ra barchasi Poshshaxonga o‘tishi kerak. Poshshaxon esa merosning barchasini Miryoqubga va’da qiladi.
198. Akbaralining qanday kasali bor edi?
Yuragida kasali bor
199. Miryoqubning Poshshaxonga ilashishi aslida ikkita xiyonat edi. Bular qanday xiyonat?
Xotiniga xiyonat, Akbaraliga xiyonat
200. Hakimjon o‘tirgan yerida ichkaridagi barcha gaplardan xabardor bo‘lib o‘tiradi. Unga bu xabarlarni kim yetkazadi?
Umrinisabibi
201. Mingboshi dodxo bir go‘dak bo‘lsa, uning onasi kim edi?
Miryoqub
202. Miryoqub Mariyaga qanday ism qo‘yadi?
Maryam
203. Mariya Miryoqubga qanday ism qo‘yadi?
Jakob
204. Miryoqub va Mariya qayerga ketishadi?
Qrimga
205. O‘zini o‘zi esi past deb atagan obraz kim?
Mariya
206. Miryoqub poyezdda kim bilan tanishadi?
Sharafiddin Xo‘jayev
207. Sharafiddin Xo‘jayev kim?
Jadid, toshkentlik savdogar
208. Sharafiddin Xo‘jayev qayerga ketayotgan edi?
Finlandiyaga
209. “Jadid – kofirning ashaddiysi” ushbu fikr kimga tegishli?
Shahobiddin domla
210. Qaysi obrazning kal degan laqabi bor edi?
Abdusamat mingboshi
211. Ufadan yangi muallima chaqirib, qizlarini o‘qitmoqchi bo‘lgan obraz kim?
Abdusamat mingboshi
212. Orenburgdagi jadidlar madrasasining nomi nima edi?
Husayniya
213. Husayniya madrasasiga kim asos soladi?
Ahmadboy Husainov
214. Millat uchun bir chaqa bermaydigan johil deya kim ta’riflanadi?
Andijonlik boylardan- Mirkomilboy
215. “So‘z” gazitasining muharriri kim?
Ayoz Is’hoqov
216. “ Tarjimon” gazetasi qayerdan chiqadi?
Bog‘chasaroy
217. Asarda yangicha o‘qish, kalta kiyinish qayerdan kirib keldi deb berilgan?
Rumdan

218. “O‘chgan yonar tog‘lar kabinursiz va ziyosiz, eskirgan kema kabi ravnaqsiz va ayanch” deya nima ta’riflangan?
Miryoqub va Mariya o‘rtasidagi nikoh
219. Sultonxonning nechta opasi bor?
Ikkita
220. Sultonxonning otasini ismi kim?
Sadriddin cho‘loq
221. Sadriddin cho‘loq qizini eridan chiqarib olish uchun kimni vakil qilib yuboradi?
Abdulla sarkorni
222. “ Opa – ba’zida do‘st, ba’zida dushman!” ushbu fikr qaysi asarda uchraydi?
Kecha va kunduz
223. O‘zini ovutish uchun qallob baqqolning egizak qizlari bilan dalalarga

chiqib o‘ynaydigan mingboshining xotini qaysi?
Sultonxon
224. Sultonxon hali sovuq tushmay uyga kirib uxlayotganiga qanday sabab ko‘rsatadi?
Qaysidir kuni kigiz ostidan chayon topib o‘ldirganini
225. Sultonxonning uyga chekinishiga asl sabab nima edi?
Hakimjon bilan xufya uchrashardi
226. Tog‘da xalq qo ‘zg ‘alganda kim uni bostirib keladi?
Noib to‘ra
227. Noib to‘ra tog‘dagi to‘palonni nechta soldat yordamida bostiradi?
150 ta
228. Asad oyida ro‘za tutgan bangiga kim o‘xshatiladi?
Xalq o‘xshatilgan
229. Mingboshining qo‘lidagi ellikboshi kim?
Matxoliq
230. Mingboshi qo‘lidagi ellikboshilarning eng abjiri kim edi?
Matxoliq
231. Akbarali Abdusamat mingboshini mingboshilikdan yiqitsa, o‘rniga kimni qo‘ymoqchi edi?
Matxoliqni
232. Shariatda “xamr” kishi deganda kimlar nazarda tutilgan?
Aroq ichadiganlar
233. Agar mingboshi bo‘lsa namoz o‘qimaganni yozda darralatib, qishda muz teshib suvga pishmoqchi bo‘lgan obraz kim?
Umaraliboy
234. Butun xalqni xotintaloq deb so‘kkan obraz kim?
Umaraliboy
235. Qumariqliklar va boylar o‘rtasidagi to‘palonning xabarini mingboshiga kim olib keladi?
Qosim laylak
236. Akbarali kimni qamab qo‘yishga buyuradi?
Yodgorxo‘jaboyni
237. Asarda amaldan ham kuchli narsa deya nima e’tirof etilgan?
Pul
238. Mingboshi o‘zining Miryoqubsiz hech narsaga yaramasligiga qachon iqror bo‘ladi?
Qumariq voqeasidan so‘ng
239. Miryoqub yo ‘qligi uchun ba’zi ishlarda mingboshi kimdan maslahat so‘raydi?
Hakimjondan
240. “ Qaldirg‘ochning tashlandiq uyasidan chigirtkaniki singari ingichka hushtak ovozi chiqardi: izg‘irin berkinib olib, sho‘xlik qilayotganga o‘xshaydi!” ushbu parcha qaysi asardan olingan?
Kecha va kunduz
241. Mingboshi qo‘l ostidagi yigitlarning nomozxoni kim edi?
O‘lmas ota
242. Miryoqubning jadidligi qachon sezilgan edi?
Yozgan xatida
243. Miryoqubning jadid bo‘lganini dastlab kim sezib qoladi?
Hakimjon
244. Hakimjon jadidcha maktubni qayerda uchratgan edi?
Abdusamat mingboshinikida
245. “ Smit-vesson” nimaning nomi?
To ‘pponcha nomi
246. Umaraliboyga 20 yil qarol bo‘lgan obraz kim?
Mamaturdi
247. O‘z xo‘jayiniga, non-tuzini ichgan kishisiga qo‘l ko‘targan obraz kim?
Mamaturdi
248. Og‘zi qiyshiq bo ‘lsa ham boyning o‘g‘li gapirsin – deb kim aytadi?
Mamaturdi
249. “Puli borning gapi o‘ng, puli yo‘qning gapi to‘ng” ushbu maqol qaysi asarda uchraydi?
Kecha va kunduzda
250. Mingboshi xotinlari ichida eng jonli, eng eslisi qaysi?
Poshshaxon

251. Asarda nima o‘rgimchak iniga o‘xshatilgan?
O‘y
252. Qaysi voqea mingboshining oshiga zahar qo ‘shib qo‘ydi?
Qumariqdagi voqea
253. Poshshaxonning jahliga tekkan narsa nima edi?
Sultonxonning beparvoligi
254. Qishloqning yarim xotinlari bilan qor otishib o‘ynagan, uchtasi bilan qorxat o‘ynab yutgan obraz kim?
Sultonxon
255. Zebini o‘ldirmoqchi bo‘lib tabarruk suvni zaharga almashtirib qo‘ygan obraz kim?
Poshshaxon
256. Tabarruk suv nima uchun edi?
Razzoq so‘fi farzand bo‘lsin deb eshonga o‘qitib keladi
257. Poshshaxon zahar uchun nimadan foydalanadi?
Kuchaladan
258. Poshshaxon tabarruk suvni kuchalaga almashtirganda mingboshining boshqa xotinlari qayerda edi?
Dalavoy baqqolning katta qizinikida ziyofatda
259. Mingboshining eski kushandasi kim?
Nasriddin baqiroq
260. Nasriddin baqiroq hozir qayerda edi?
Hajga ketgan edi
261. Qumariq masalasi bo‘yicha Noib to‘ra Akbaraliga yordam bera olmasligini aytgach, u kimga murojaat qilib ko‘radi?
Zunnun orqali Noib to‘raning xotiniga
262. Noibning xotini kim bilan gaplashib ko‘rmoqchi edi?
Hokimning xotini bilan
263. Noibning xotini qancha pul kerak deydi?
Ming-bir yarim ming
264. “ Yotib qolguncha otib qolaylik” naqli kimning tilidan aytilgan?
Noib to‘raning xotini (Valya)
265. Mingboshi Qumariq voqeasi uchun qancha pul topishga jazm qiladi?
Uch ming so‘m
266. “ Mening xotinim bo‘la turib aroq ochishni bilmaysanmi?” ushbu jumlani mingboshi kimga qarata aytadi?
Zebiga
267. “ Shishaning tagiga yo‘g‘on shapalog‘i bilan ikki marta urdi, po‘kak sachrab chiqib, shiftga tegdi, so‘ngra u yerdan sachrab tokchadagi katta jomga kelib tushdi, “jar-r-rang” ... etdi jom”
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
Kecha va kunduz
268. Asarda ikki o‘rinda mingboshining ko‘zida yosh ko‘rindi deyilgan. Qaysi o‘rinlarda?
Noib to‘raning o‘g‘lini bag‘riga bosganda, o‘limi oldidan
269. G‘alati, yuvosh, muloyim, beozor, ayanch nazar bilan Zebiga boqqan obraz kim?
Mingboshi
270. O‘q otib mo‘ljalga tekkizolmagan obraz kim?
Poshshaxon
271. Poshshaxonning yig‘lashiga uchta taxminiy sabab bor edi. Bular qaysilar?
Mingboshining o‘limi uchun, Miryoqubning bevafoligi uchun, hayf ketgan kuchala uchun
272. Asarda nima olovga tashlangan jizzaga o‘xshatilgan?
Kundoshlik orasida yuz bergan jinoyat
273. Kichkinagina uyezd shahrining tor miyali amaldorlari tomonidan bir tasodifning to‘rt chaqaga arzimagan qurboni bo‘lib, zamonning eng zo‘r qahramoni darajasiga ko‘tarilgan obraz kim?
Mingboshi
274. Mingboshi vafotidan so‘ng qahramon darajasiga ko‘tarilishining sababi nimada?
Amaldorlarning o‘zidan katta amaldorlarga “Vahshiy” xalq orasida juda yaxshi va ziyrak siyosat yurgizib, o‘sha xalq orasidan eslik va tadbirlik, toj-u taxtga nisbatan shunday sodiq ma’mur yetishtirganliklarini ko‘rsatmoq

275. “ Munday shoshilinch sud urush maydonlarida bo‘lmasa boshqa joyda bo‘lishiga aqlim yetmaydi” ushbu jumla kimga tegishli?
Tilmoch
276. Pochtada ishlovchi pastroq bir ma’mur deb kim e’tirof etilgan?
Tilmoch
277. “Agar haqiqiy qonunlarga amal qilinganda, uni yo otish, yo bir umrlik surgun qilish shart edi”. Ushbu ta’rif kim haqida?
Zakunchi
278. Rusiyada inqilobdan burun dong‘i chiqqan advokat kim?
Plevako
279. Yolg‘on guvoh kerak bo‘lsa, doim tayyor turadigan obraz kim?
Obrezqora
280. Akbarali so‘zi sud jarayonida buzib qanday talqin qilinadi?
Umarali, Amir o‘g‘li, Qambar vali
281. “Ikkovining ham quyrug‘i kulcha bo‘lgan ilonday buralib yotardi” ushbu jumlada nima haqida gap ketyapti?
Zebiga qarshi protokoldagi harflar
282. Zebining kundoshlari qanday ko‘rsatma berishadi?
Zebinisaxondan boshqa hech kim qilmaydi
283. Mingboshi o‘limidan bir kun oldin shamollab, notob bo‘lib qolgan obraz kim?
Poshshaxon
284. Sud zaliga Zebining qora paranji, qora chimmat, qora mahsi kovushda kelishi nimaga o‘xshatilgan?
Ispaniya inkvizitsiya mahkamalarining qora aboli kardinallariga
285. Zebiga qanday jazo beriladi?
7 yil Sibir qilinadi
286. Zebining otib o‘ldirilishini so‘ragan obraz kim?
Prokuror
287. Maktabidan ozod bo‘lgan, eski maktab bolalariga o‘xshatilgan obraz kim?
Domla
288. Juma nomozida Akbarali mingboshining o‘ldirilganini eshitgan Razzoq so‘fi to‘g‘ri qishloqqa jo‘naydi. U yerda kim bor edi?
Faqat Hakimjon
289. Akbarali haqida “ Unday amaldorni endi Chin-Mochindan topib kelmasa, bu yurtlarda topilmas” jumlasi kimning tilidan topilgan?
Razzoq so‘fi
290. Akbaralining o‘rniga kim mingboshi bo‘ladi?
Zunnun
291. So‘fining arz qilib boradigan birdan bir mahkamasi qayer edi?
Eshon boboning xonaqosi
292. Berib o‘rganmagan, olib o‘rgangan obraz kim?
Eshon bobo
293. Eshon boboga qarshi bosh ko‘targan Razzoq so‘fini muridlar nima deb haqorat qilishadi?
Kofir, nasoro, mardud
294. Razzoq so‘fini muridlar qanday jazolashadi?
Muzni teshib, yalong‘och holda suvga pishishadi va ho‘l badanni xivchinlashadi
295. Muzday suvga pishilgan so‘fining tanasi nimaga o‘xshatilgan?
Arabiston tog‘larining saratondagi toshlariga
296. Eshon boboni kim o‘ldirib ketadi?
Razzoq so‘fi
297. Razzoq so‘fi Eshonning pullarini olib qochadi. Pullar qayerda saqlanardi.
Javonda
298. Asarda jinni bo‘lib qolgan obraz kim?
Qurvonbibi
299. Asarda zanjirband qilingan obraz kim?
Qurvonbibi

Odil Yoqubovning “ULUG‘BEK XAZINASI” asari yuzasidan savol-javoblar to‘plami

1. “ Ulug‘bek xazinasi” asarining janri nima?
Roman
2. Asar qanday tasvir bilan boshlanadi?
Vaqt tun yarmidan oshgan rasadxona teran sukutda
3. Ali qushchining to‘liq ismi kim?
Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi
4. Mirzo Ulug‘bekning qanday unvoni bor edi?
Shahriyori falak-iqtidor
5. Shahriyori falak-iqtidor so‘zining ma’nosi nima?
Qudratli shoh
6. Qaysi binoning devorlari naqshlariga tilla suvi yugurtirilgan?
Rasadxona
7. Sudsi faxri nima?
sekstant
8. Kaltagina cho‘qqi soqolli obraz kim?
Ali Qushchi
9. Mirzo Ulug‘bekning kursisiga qaysi hayvonning terisi yopilgan edi?
Yo‘lbars
10. Mushtariy qaysi sayyoraning ikkinchi nomi?
Yupiter
11. Qaysi hukmdor “Xoqoni Said” deb atalardi?
Shohrux Mirzo
12. O‘z padariga qarshi qilich ko‘targan obraz kim?
Abdullatif
13. Ulug‘bek Abdullatifga qarshi qaysi oyda yurish qiladi?
Rajab oyining boshlarida
14. Ulug‘bek Jayhun bo‘ylarida Abdullatifga qarshi lashkar tortadi-yu, nima sababdan ortiga qaytishga majbur bo‘ladi?
Samarqandda fitna sodir bo‘ladi
15. Kesh shahri hozirgi qaysi shaharga to‘g‘ri keladi?
16. Jayhun qaysi daryoning qadimgi nomi?
Amudaryo
17. Ulug‘bekning salkam 40 yillik hukmronligi natijasida yiqqan nodir xazinasi nima edi?
Kutubxonadagi kitoblari
18. Ulug‘bekka kutubxonadagi kitoblari kimni yodiga solar edi?
Ustozi Qozizoda Rumiy
19. “Riyoziyot” asarining muallifi kim?
Qozizoda Rumiy
20. Asarda artilgan chinniday tiniq deya nima ta’riflangan?
Samo
21. Ali Qushchining suyukli shogirdi kim?
Miram Chalabiy
22. Riyoziyot qaysi fan?
Matimatika
23. Mudarra dastori nima?
Mudarrislik sallasi
24. Ali Qushchi nima sababdan “Qushchi” nomini olgan?
Asov otlarni jilovdan bir lahzada o‘ziga o‘rgatib olgani uchun
25. “Shohizinda” nimaning nomi?
Qabriston
26. Ko‘pincha qabriston qorisi kimning daxmasi yonida tilovat qilar edi?
Qusam ibn Abbos
27. Qalandarlar aytadigan qo‘shiq qaysi?
Yo ollo, do‘st, yo ollo!
Haq, do‘st, yo ollo!
28. “Qushchi” so ‘zining ma ‘nosi nima? Mohir ovchi
29. Daha qanday o‘lchov birligi?
O‘n kishini bildiruvchi o‘lchov birligi
30. Qaysi bino chuqur xandaq bilan o‘ralgan?
Ko‘ksaroy
31. Qaysi qal’a ulkan go‘ristonni eslatadi?
Ko‘ksaroy

32. Asarda nima eski daxmalarga o‘xshatilgan?
Saroy gumbazlari
33. Salohdor qanday lavozim?
Darvozabon
34. Ko‘ksaroy ostida yerto‘lalar bo‘lib u yerto‘lalardan nima maqsadda foydalanar edi?
Qurolsozlar qurol yasashadi
35. Ulug‘bekning ikkinchi oshiyondagi tanobiy xonasi nimalar bilan bezatilgan edi?
Ulug‘bekning ovda qo‘lga kiritgan o‘ljalari va ov qurol-aslahalari
36. Tanobiy xonada Ulug‘bek qo‘lga kiritgan qaysi hayvonlardan nishonalar bor edi?
Yo‘lbars terisi, arxar shoxi
37. Ulug‘bek arxarni qayerda tutgan edi?
Hisor tog‘larida
38. Ulug‘bek yo‘lbarsni qayerda ov qilgan edi?
Jayhun bo‘ylarida
39. Yo‘lbarsni aslida kim o‘ldirgan edi?
Ali Qushchi
40. Ulug‘bek nima sababdan Ali Qushchini “haloskorim” deb atardi?
Yo‘lbars hujumidan saqlab qolgani uchun
41. Sadoq nima?
O‘qdon
42. Ali Qushchi otgan o‘q yo‘lbarsning qayeriga tegadi?
Ko‘ziga
43. Qaysi binoning devorlariga tilladan jilo berilgan edi?
Ko‘ksaroy
44. Davlat hamda shoh va fotihlarning tarixini besh qo‘lday biladigan obraz kim?
Mirzo Ulug‘bek
45. Asarda kim allomalar sarboni deb e’zozlangan?
Ulug‘bek
46. Dorulmulk so‘zining ma’nosi nima?
Poytaxt, turar joy
47. Samarqand dorug‘asi kim?
Mironshoh
48. Qaysi lavozim vakillari qizil rangdagi kimxob to‘n kiygan?
Devonbegi
49. Mashvarat so‘zining ma’nosi nima?
Harbiy kengash
50. Hirovul so‘zining ma’nosi nima?
Old qisim qo‘shinlar
51. Barong‘or so‘zining ma’nosi nima?
O‘ng qanot qo‘shinlari
52. Ulug‘bek tushida kimni ko‘radi?
ustodni
53. Ulug‘bekning ustodi kim?
Qozizoda Rumiy
54. Ulug‘bek Qozizoda Rumiy bilan ilk bor qaysi faslda uchrashgan edi?
Ilk bahorda
55. Qaysi obraz “Zamona Aflotuni” deb atalgan?
Qozizoda Rumiy
56. Qaysi obraz haqida xalq orasida g‘aroyib rivoyatlar tarqagan edi?
Qozizoda Rumiy
57. “Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari,boshidagi kulohga o‘xshagan uchlik taqyasi, egnidagi chakmoni – hammasi qorday oppoq edi” ushbu ta’rif kim haqida?
Qozizoda Rumiy
58. Ustodi Ulug‘bekka tushida nima deydi?
Koyiydi. Bu bevafo saltanatni deb ilm-fandan yuz o‘girding deydi
59. Qaysi obrazning yoqut ko‘zli oltin uzugi bor edi?
Ulug‘bekning
60. Ulug‘bek nimadan qo‘rqar edi?
To‘plagan kitoblari va yaratgan asarlarining poymol bo‘lishidan
61. Ulug‘bek Movorounnahrda qancha yil rahnamolik qiladi?
Salkam qirq yil
62. Kelgusi avlod o‘zidan hazar qilmasmikan deb qo‘rqadigan obraz kim?
Ulug‘bek
63. Ali Qushchi bilan birga saboq olgan Ulug‘bekning yana bir shogirdi kim?
Mavlono Muhiddin

64. Qalandar Qarnoqiy kim?
Ali Qushchining shogirdi
65. Qalandar Qarnoqiy kimning qizini sevib qoladi?
Mavlono Muhiddinni
66. Mavlono Muhiddinning qizini Qalandar Qarnoqiyga so‘rab sovchi bo‘lib borgan obraz kim?
Ali Qushchi
67. Mavlono Muhiddinning otasi kim?
Salohiddin zargar
68. Sovchilik harakati salbiy natija bilan bitgach, mavlono Muhiddin qizini kimga nikohlab beradi?
Ibrohimbek tarxonning kenja o‘g‘liga
69. Ulug‘bek Jayhun bo‘ylariga Abdulatifga qarshi yurishga ketganida Samarqandni kimga topshirib ketadi?
Shahzoda Abdulazizga
70. Abdulazizning qaysi ishi amirlar orasida norozilik uyg‘otadi?
Ibrohimbek tarxonning o‘g‘lini qatl ettirib uning yosh qallig‘ini o‘z haramiga olishi
71. Ojizam xattotlikda tengsizdur deb Ulug‘bekning tarixiy asarlaridan birini ko‘chirtirib bergan obraz kim?
Mavlono Muhiddin
72. Kimning qo‘llari go‘yo fil suyagidan yasalganday deya ta’riflangan?
Xurshida Bonu
73. Kimning xusnixati xina qo ‘yilgan barmoqlariday nozik va go‘zal edi?
Xurshida Bonu
74. Madrasani tark etib darveshlikni ixtiyor etgan obraz kim?
Qalandar Qarnoqiy
75. Qarnoqiy nega darveshlikni tanlaydi?
Xurshida Bonuning to‘ydan so‘ng
76. “Mozori Sharif”da ro‘y bergan mudhish voqea nima edi?
Bir mullavachchani dafn etishga qo‘yilmagani
77. Asardagi barcha diniy peshvolarning rahnamosi kim?
Nizomiddin Xomush
78. Din peshvolari ilm ahlini qanday ayblashar edi?
dahriylikda
79. “ Ustodning amri shogird uchun amri vojibdur” ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Ali Qushchi
80. Maxfiy eshik qayerda edi?
Salomxonada, taxtning orqasidagi parda ortida
81. “ ... devorlari qora marmar bilan qoplangan, shifti past, torgina chorsi xona bo‘lib, ichi muzday sovuq, xonaning to‘rt burchagida to‘rt po‘lat sandiq turar, sandiqlar og‘ir zanjirlar bilan temir qoziqlarga bog‘langan edi”. Parchada qayer ta’riflanmoqda?
Maxfiy xona
82. Maxfiy xonadagi sandiqlarda nima bor edi?
Xazina
83. Sandiqlardagi xazinalar kimga tegishli edi?
Amir Temurga
84. Sandiqlardagi xazinalar qayerdan keltirilgan edi?
Bag‘dod va Qohira
85. Amit Temur bu xazinalarni kim bilan bo‘lgan jangda g‘olib bo‘lgach, olib kelgan edi?
Boyazid
86. Javohirot ichida piyoladay-piyoladay qilib quyilgan narsalar nima edi?
oltin
87. Bitta quyma oltinning og‘irligi qancha edi?
Uch qadoq
88. Ulug‘bek oltinlardan nechtasini Ali Qushchiga beradi?
10 ta
89. Bu oltinlar nima uchun sarf bo‘lishi lozim edi?
Kutubxonadagi nodir kitoblar va Ulug‘bek asarlarini asrab qolish uchun
90. Ulug‘bekning aytishicha bu oltinlarni pulga almashtirish lozim bo‘lsa Ali Qushchi kimga murojaat qilishi kerak edi?
Salohiddin zargarga

91. “ Toki bu mushkul ishda suyanadigan bir tog ‘im sen bo ‘lsang, bir tog ‘im mavlono Muhiddin” ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Mirzo Ulug‘bek
92. “ Toki bu mushkul ishda suyanadigan bir tog‘im sen bo‘lsang, bir tog‘im mavlono Muhiddin” ushbu jumla kimga qarata aytilgan?
Ali Qushchi
93. “Toki bu mushkul ishda suyanadigan bir tog‘im sen bo‘lsang, bir tog‘im mavlono Muhiddin” ushbu jumlada mushkul ish deyilganda nimalar nazarda tutilgan?
Nodir kitoblar va Ulug‘bek asarlarini saqlab qolish
94. Ulug‘bek Ali Qushchini nima maqsadda “ Ko‘ksaroyga chaqirgan edi?
Kitoblari va asarlarini saqlab qolish
95. Nogiron, qalbi majruh deya ta’riflangan shahzoda kim?
Abdulaziz
96. Farzandi arjumand so‘zining ma’nosi nima?
Suyukli farzand
97. Barcha lashkarboshilarini Ulug‘bekka qarshi qo‘ygan farzandi kim?
Abdulaziz
98. Ali Qushchi javohirotlarni hech kim bilmasligi uchun Ko‘ksaroydan qanday olib chiqadi?
Belbog‘iga ikki qator qilib bog‘lab oladi
99. Muazzam saroydagi son-sanoqsiz xonalar orasida Mirzo Ulug‘bek qaysi xonani ko‘proq xush ko‘rar edi?
Ovchilik o‘ljalari bilan bezatilgan xona
100. Ulug‘bek Keshga kimni chopar qilib yuboradi?
Bobo Husayn
101. Ulug‘bekning suyukli navkari kim?
Bobo Husayn
102. Bobo Husayn qanday xabar olib keladi?
Keshning qo‘ldan ketganligi
103. Kesh dorug‘asi kim?
Amir Kamoliddin
104. “ Bu amirlarga inonma, o‘g‘lim! Ularni sodiq bo ‘lsin desang, qilichingni ilkingda mahkam ushla” ushbu jumlalar kimning tilidan kimga qarata aytilgan?
Shohruh Mirzo Ulug‘bekka aytgan
105. Cherik so‘zining ma’nosi nima?
Ko‘ngillilar
106. Ilik so‘zining ma’nosi nima?
Qo‘l
107. Shohruh Mirzo vafotidan so‘ng Hirotga borganida bir voqea ro‘y berib Ulug‘bekning butun vujudini zirqiratib yuboradi. Bu qanday voqea?
Bir darvesh yo‘lini to‘sib sarhardalari Hirot tevaragidagi butun qishloqlarnigina emas, yo‘qsillar, gadolar xonaqohlarini ham talon-taroj qilganini bu uchun butun temuriylar avlodlari Olloh qahriga duchor bo‘lishini bashorat qiladi
108. Kimning kirdikorlari tufayli Hirot saroyida nizo-nifoq avj olib, beqiyos saltanat xavf ostida qoladi?
Gavharshod begim
109. Uzun bo‘yli, ko‘k ipakdan keng ko‘ylak kiyib, boshiga ko‘k ro‘mol o‘ragan, qo‘lidan tasbehi tushmaydigan kalandimog‘ bir xotin” ushbu ta’rif kimga tegishli?
Gavharshod begim
110. Gavharshodbegimning ko‘k libosga burkanishi nimaning belgisi edi?
Motam belgisi.
111. Sohibqiron vafoti uchun to o‘lguncha motam tutgan obraz kim?
Gavharshod begim
112. Gavharshodbegimni suyukli nabirasi kim?
Alouddavla
113. Alouddavla va Abdulatifni bir-biriga qayrab qatl-u qirg‘in chiqargan kim?
Gavharshodbegim
114. Mirzo Ulug‘bekka kim “Shohi sharir” nomini taqagan edi?
Gavharshod begim
115. “Shohi sharir” so‘zining ma’nosi nima?
Buzuq shoh

116. Abdulatifni o‘z otasiga qarshi gijgijlagan obraz kim?
Gavharshod begim
117. Naqshbandiylar jamoasi rahnamosi kim?
Nizomiddin Xomush
118. Ulug‘bek qaysi yurushdan mag‘lubiyat bilan qaytadi?
Xuroson
119. Kecha-yu kunduz kutubxonadan chiqmagani uchun “Kitobdor” nomini olgan obraz kim?
Miram Chalabiy
120. Miram Chalabiy kim?
Ali Qushchining shogirdlaridan
121. Ali Qushchining onasi kim?
Tillabibi
122. Tillabibi qaysi urug‘dan edi?
Sahroyi mang‘it
123. “ sultonlardin uzoq yurmoq darkor. Qirq yil jahongirga mahram bo‘lib, uning qarorgohida mulozimlik qilib ne orttirdim? Boshimga balo orttirdim...” ushbu fikrlar kimga tegishli edi?
Ali Qushchining otasiga
Kitob deb, befarzand, so‘qqabosh o‘tayotgan obraz kim?
Ali Qushchi
124. Ulug‘bek barpo etgan kutubxonadagi hanuzgacha yaxshi o‘qilib sharhlanmagan kitoblar qayerdan olib kelingan edi?
Qqohiradan.
125. Qohiradan kitoblarni kim olib kelgan edi?
Amir Temur Boyazidni mag‘lub etgach olin keladi
126. Ulug‘bek osoyishta kunlarga yetsa, qayerlardan fozillarni chaqirib Amir Temur keltirgan kitoblarni sharhlab berishini so‘ramoqchi edi?
Qohira, Bag‘dod, Damashq
127. Qaysi hudud “Hizonat ul-hikmat” hikmat xazinasi deb atalgan?
Bog‘dod
128. Qayerdan keltirilgan kitoblarda hayvon va qushlarning suratlari bor edi?
Chin va Hindiston
129. Shohruh Mirzo vafotidan oldin Ulug‘bek qayerlardan ikki allomani tilla evaziga chaqirtirib oladi?
Hindiston va Chin
130. Chaqirtirilgan ikki fozilning qaysi biri ishini tugatolmay vafot etadi?
Hind fozili
131. Hind munajjimlari yaratgan mashhur asari qaysi?
“Sidhaita”
132. Chin fozilidan necha jild kitob qoladi?
Uch jild
133. Chin fozili chinlik munajjimlarning asarlarini qaysi tilga tarjima qilib beradi?
Fors
134. Kutubxona to‘rida chetlariga tilla tasmalar qoqilgan javonda qanday asarlar saqlanardi?
Movorounnahr fozillarining asarlari, qo‘lyozmalari kutubxona to‘ridagi javonning eng tepasidan qaysi allomaning asarlari joy olgan edi?
Al Xorazmiy
135. Kutubxonada Xorazmiy asarlari necha jild edi?
Olti jild
136. Olti jild asarning necha jildini Xorazmiy o‘z qo‘li bilan yozganligi rivoyat qilinardi?
Uch jildini
137. Xorazmiy asarlari qayerdan keltirilgan edi?
Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma” dan
138. Qaysi alloma “jomiul ulum” deb ulug‘langan?
Ibn Sino
139. Ibn Sinoning tibbiyotga oid “Kitob ush-shifo” asari necha jild?
20 jild
140. Ibn Sinoning “Kitob un-najot” asari necha jild?
10 jild
141. Ibn Sinoning she’riy asarlari necha jild?
Uch jild
142. Kutubxonada Farobiyning necha jild asarlari bor edi?

16 jild
143. Qaysi alloma fozillar fozili deb ulug‘langan?
Abu Rayhon Beruniy
144. Kutubxonada kimning kitoblarini barchasi qizil jildlik bo‘lib faqat bittasi firuzarang jildli edi?
Beruniy
145. “Al- qunun al- Mas’udiy” asarining muallifi kim?
Beruniy
146. Ulug‘bek qaysi asarni juda ko‘p o‘qir va uni boshqa kitoblar orasidan tez topib olishi uchun firuzarang jildga o‘ratgan edi?
“ Al-qonun al- Mas’ud”
147. Handasa qaysi fan?
Geometriya
148. Ulug‘bekning tarixiy asarlari necha jild edi?
Olti jild
149. Kutubxonadagi kitoblarning miqdori qancha edi?
Yuz sandiqqa sig‘mas edi
150. Ilm durdonalarini deb foniy dunyo lazzatlarini tark etgan, uylanmoq, farzand ko‘rmoq baxtidan mahrum bo‘lgan obraz kim?
Ali Qushchi
151. Ali Qushchi xazinani qayerga yashiradi?
Kutubxonaga, eshik ustidagi qalin kitoblar orqasiga
152. Qop-qora soqoli ko‘ksiga tushgan, ko‘zlari yonib turgan barvasta darvesh kim?
Qalandar Qarnoqiy
153. Qalandar qarnoqiy qayerlik edi?
Yassi shahrining Qarnoq qal’asidan
154. Qalandar Qarnoqiy Ulug‘bek dargohiga qanday kelib qolgan edi?
20 yil avval qipchoq xoni Baroqxon Sig‘noq va Yassini bosib olgach bir guruh yigitlar bilan Ulug‘bekdan madad tilab keladi
155. Qalandar Qarnoqiy ilm-fanni ixtiyor etishidan avval qaysi kasb bilan shug‘ullanar edi?
Sipohlik
156. Turkiyda nafis she’rlar bitib ustozining mehrini qozongan obraz kim?
Qalandar Qarnoqiy
157. O ‘z ustozining qiziga ko‘ngil qo‘ygan obraz kim?
Qalandar Qarnoqiy
158. Qirq besh yoshlar chamasidagi, qosh-ko‘zi qop-qora, oq-sariqdan kelgan, nozikkina bo‘ychan obraz kim?
Mavlono Muhiddin
159. “Ustod siz-u bizni eng yaqin shogirdlarim deb bu yumushni yuklagandur. Faqir huzuringizga maslahat so‘rab keldim” ushbu jumla kimning tilidan kimga qarata aytilgan?
Ali Qushchi tilidan mavlono Muhiddinga qarata
160. Bay’at etmoq so‘zining ma’nosi nima?
Qasamyod qilmoq
161. Ali Qushchi yashirib olib qolmoqchi bo‘lgan kitoblarni o‘tda yoqishga fatvo bergan obraz kim?
Nizomiddin Xomush
162. Shayxulislom bo‘lish orzusida yurgan obraz kim?
Nizomiddin Xomush
163. Mankuha so ‘zining ma’nosi nima? Jufti-halol
164. Asarda kim “qari tulki”ga o‘xshatilgan?
Salohiddin zargar
165. Ali Qushchi Temur tillalari haqida kimga aytadi?
Salohiddin zargarga
166. “Amir Temur toshlari... ehtiyot bo‘lmoq kerak... zinhor-bazinhor ehtiyot bo‘lmoq kerak. Zero, ajab emaskim, Mirzo Ulug‘bekning ilm durdonalarini bobosi Amir Temurning shu toshlari asrab qolsa!..” ushbu jumlalar kimga tegishli?
Salohiddin zargarga
167. Bag ‘dod xalifasi Ulug‘bekka nima sovg‘a qilgan edi?
Arabiy oq bedov

168. Muqarrab us-sulton so‘zining ma’nosi nima?
Sultonning eng yaqin kishisi
169. Ulug ‘bek necha yoshida Movorounnahrtaxtiga chiqadi?
O‘n beshga to‘lmasdanoq (14 yoshida)
170. Ulug‘bekning nosuyukli xotini kim?
Og‘abegim
171. Ulug‘bekning tushida kalxat qiyoasiga kirib uni taqib etgan obraz kim?
Og‘abegim
172. Amir Temurning Yassaviy maqbarasini bunyod etishdan maqsadi nima edi?
Xalqni, Oltin O‘rda, Qalmoq, Dashti Qipchoq xoqonlarini titratmoq
173. Ulug‘bekni Sig‘noq yaqinidagi jangda Baroqxonga asir tushishdan kim qutqarib qolgan edi?
Qalandar Qarnoqiy
174. Qaysi bog‘da Misr xurmolari, Xitoy olmalari, Hindiston bananlari o‘stirilar edi?
Bog‘i behisht
175. Movorounnahr shayxulislomi kim?
Burhoniddin
176. “ Sultonlar – Ollohning yerdagi ko‘lankasidir” ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Shayxulislom Burhoniddin
177. “ O‘z qiblagohining irodasi farzand uchun farzi ayndur” ushbu jumla kim tomonidan aytilgan?
Shayxulislom Burhoniddin
178. Farzi ayn so ‘zining ma’nosi nima? Bajarilishi lozim bo‘lgan buyruq
179. Amir Temurning ustozi kim?
Sayid Baraka
180. Amir Temurning yurushlarida hamisha u bilan birga bo‘lgan obraz kim?
Sayid Baraka
181. Amir Jondor qo‘shinini nahangday yutib yuborish uchun Abdulatif pistirmaga qancha qo‘shinni qo‘ygan edi?
O‘n ming
182. Ulug‘bek qo‘shinining o‘ng qanot sarkardasi kim?
Idris tarxon
183. Semizligidan hanirab nafas oladigan yum-yumaloq amir kim?
Iskandar barlos
184. Abdulatifning qancha lashkari bor edi?
Qirq mingdan ortiq
185. Hirovul qo‘shinni Abdulatifning komiga itargan amir kim?
Sultonshoh tarxon
186. Ulug‘bek necha yil yulduzlarga oshufta bo‘ldi?
Ellik yil
187. Ulug‘bekning suyukli sayyorasi qaysi edi?
Zuhro
188. Qaysi yulduzlar bir-biriga yaqin kelganda olamda Sohibqiron tug‘iladi?
Zuhro va mushtariy
189. Asarda oltmishlardan oshgan yo‘g‘on, norg‘ul deya kim ta’riflangan?
Dorug‘a Mironshoh
190. Samarqand qozisi kim? Xo‘ja Miskin
191. Qalandar Qarnoqiy qozi Miskin bilan qachon uchrashgan edi?
Shohizinda xonaqohidagi darveshlar jamoasiga qo‘shilgan paytlarda
192. Qalandar Qarnoqiy nega darveshlikni tanlaganiga afsus qiladi?
Darveshlar u o‘ylaganchalik sof, pok bo‘lmasdan ular kunduzlarigina hamd-u sano qilishib kechasi ilan kayf-u safo qilib chiqishar edi
193. Xonaqohning qalandarboshisi kim edi?
“Qashqir” laqabli g‘ilay darvesh
194. Qalandar Qarnoqiy o‘zining ilk she’rlarini kimga o‘qib bergan edi?
Xurshidabonuga
195. Qalandar Qarnoqiyga birga qochishni taklif qilgan obraz kim?
Xurshidabonu
196. Asarda sahroyi sodda, haq taolo devday qaddi-qomat berib aql bermagan anqov deya kim ta’riflangan?
Qalandar Qarnoqiy

197. “ Ustodini ranjitmoq – o‘z padarini ranjitmoq bilan barobar” ushbu naql qaysi asarda keltirilgan?
Ulug‘bek xazinasi
198. Asardagi oltin jarani quturtirgan battol kim?
Salohiddin zargar
199. Dunyo mening deganlar
Jahon molin olganlar
Karkas qushdek bo‘lubon
Ul haromg‘a botmishlar.
Ushbu jumlalar qaysi asarda keltirilgan?
Ulug‘bek xazinasi
200. Dunyo mening deganlar
Jahon molin olganlar
Karkas qushdek bo‘lubon
Ul haromg‘ botmishlar.
Ushbu jumlalar muallifi kim?
Ahmad Yassaviy
201. Maqhur so‘zining ma’nosi nima?
Ollohning g‘azabiga duchor bo‘lgan
202. Salohiddin zargar Ulug‘bekning Ali Qushchiga bergan javohiroti daragini kimga yetkazib boradi?
Nizomiddin Xomshga
203. Nizomiddin Xomush darveshlar orasidan Qalandar Qarnoqiyni nima maqsadda chaqirib oladi?
Ali Qushchiga ko‘z-quloq bo‘lib oltin daragini topishni buyuradi
204. Mullo, mufti bo‘lg‘onlar
Nohaq da’vat qilg‘onlar
Oqni qora deganlar
Ul tamuqqa kirmishlar.
Ushbu satrlar qaysi asarda keltirilgan?
Ulug‘bek xazinasi
205. Butkul ahli jununlar, musofir va mujohirlar, gado va yo‘qsullar homiysi kim edi?
Xoja Bahoviddin Naqshbandiy
206. O‘z o‘g‘lini negadir bolalikdanoq suymagan ota obrazi kim?
Ulug‘bek
207. Abdulatif kimning tarbiyasida voyaga yetadi?
Gavharshodbegim
208. O‘z buvisi Gavharshod begimni hibsga olgan obraz kim?
Abdulatif
209. Alouddavla Abdulatifni qo‘lga tushirib hibs qilganda, chidab turolmagan Ulug ‘bek qayerga qo ‘shin tortib boradi?
Xurosonga
210. Ulug‘bek qayerni Abdulatifga in’om etadi?
Balxni
211. Baland devor bilan o‘ralgan ulkan bog‘ o‘rtasida sutday oppoq koshona ko‘zga chalinadi. Bu qaysi bog‘ edi?
Bog‘i jahon
212. Amir Temur og‘ir yurushlardan qaytayotib albatta qaysi bog‘ga qo‘nib o‘tardi?
Bog‘i jahon
213. Ulug‘bekning suyukli enagasi kim edi?
Saroymulkxonim
214. “Oldiga etak tutib chodir bo‘yidagi bo‘liq oq biyani o‘zi sog‘ar, so‘ng, alohida meshga quyib, qiyomiga keltirib qimiz qilar va yaxday buloqqa tashlab qo‘yardi”. Ushbu ta’rif kim haqida?
Saroymulkxonim
215. “ U sezilarli oqsoqlansa ham, aso ushlamas, novcha qaddini yigitlardek tik tutib: go‘yo bir yoqqa shoshayotgandek shitob bilan yurar edi”. Ushbu ta’rif kim haqida?
Amir Temur
216. “ U hech qachon zarrin to‘n kiymas, yozning saratonida ham tuya junidan to‘qilgan oq-sarg‘ish chakmonini yechmas, o‘tirganda chakmonining etagi bilan mayib oyog‘ini o‘rab tizzasini silab o‘tirar edi” . ushbu ta’rif kim haqida?
Amir Temur
217. Amir Temurning orzusi nima edi?

Avlodlaridan Xorun ar-Rashid singari fozil podsho chiqishini xohlardi.

218. Qaysi obrazning nevarasi mutolaa qilayotganini ko‘rsa jahli chiqar edi?
Amir Temur

219. Zuhal va Mushtariy yulduzlari necha yilda bir yaqinlashadi?
Sakkiz yuz yilda

220. Zuhal va Mushtariy yulduzlari shu paytgach necha marta yaqinlashgan edi?
Uch marta

221. Zuhal va Mushtariy yulduzlari birinchi bor yaqinlashganda kim dunyoga keladi?
Iskandar Zulqarnayn

222. Zuhal va Mushtariy yulduzlari ikkinchi bor yaqinlashganda kim dunyoga keladi?
Muhammad Alayhissalom

223. Zuhal va Mushtariy yulduzlari uchinchi bor yaqinlashganda kim dunyoga keladi?
Amir Temur

224. Ulug‘bek va Abdulatif qo‘shini daslabki bor to‘qnashganda Ulug‘bek askarlarining sarosimaga tushib chekinishlariga nima sabab bo‘ladi?
Abdulatif qo‘shini orasida fillar ham borligi

225. Ulug‘bekning jiyanlari kimlar?
Shahzoda Abdulla va Abu Said Mirzo

226. Birinchilardan bo‘lib Abdulatif tarafiga qochib o‘tgan obraz kim?
Amir Sultonshoh tarxon

227. Ulug‘bek nima sababdan poytaxtga chekinishni xohlamaydi?
Abdulatifda tosh otuvchi arrodalar bo‘lib, u shaharni yer bilan yakson qilishidan qo‘rqadi.

228. G‘animning hirovul qo‘shinlarini oldinga o‘tkazib yuborib, so‘ng banagoh jarong‘ir va barong‘ir suvoriylari bilan qurshab olib qopqonga tushurish kimning usuli edi?
Amir Temur

229. Pistirmada turgan asosiy qo‘shin nima den atalgan?
Chopovul va shaqovul

230. Ulug‘bek uchun eng yomon xabar nima edi?
Sulton Jondor qayergadir qochgani va qo‘shinni Iskandar barlosning yolg‘iz boshqarayotgani

231. Ulug‘bekning eng ishongan amiri kim edi?
Sultonshoh Barlos

232. Dorulsaltana darvozasini berkitgan amir kim?
Mironshoh

233. Ulug‘bekka xiyonat qilgan amirlar kimlar?
Sultonshoh, Mironshoh, Jondor

234. Amir Temur yasattirgan quyma temir darvoza nima deb nomlangan edi?
Darvozayi ohanin

235. Nomozi asrdan so‘ng shoh-u gado – barcha uchun yopiq bo‘lgan darvoza qaysi?
Darvozayi ohanin

236. Mirzo Ulug‘bek agar toj-u taxt qo‘lida qolsa, Sulton Jondorga qanday jazo bermoqchi edi?
Oyog‘idan dorga osib ostidan o‘t qo‘ymoqchi edi

237. Shohruhiya qal’asi boshlig‘i kim edi?
Ibrohim Po‘lat

238. Shohruxiya qal’asi ham qo‘ldan ketgani xabarini kim keltiradi?
Shahzoda Abdulaziz

239. Rasadxonaga bostirib kirib Ali Qushchidan oltin so‘ragan obraz kim?
Qalandar Qarnoqiy

240. Yo‘lbars bilan olishgan sheryurak obraz kim?
Ali Qushchi

241. “ Faqir dunyoga kelib ikki odamdan yomonlik ko‘rmadim. Biri – davlatpanoh Mirzo Ulug‘bek, biri – siz, og‘a!” ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Qalandar Qarnoqiy

242. Ali qushchi kitoblarni yashirish uchun joy izlaganda xayoliga qayer keladi?
Urgut tog‘idagi “ Nog‘oratepa”

243. Ali Qushchini temirchi Temur bobo huzuriga kim olib boradi?
Qalandar Qarnoqiy
244. Qalin soqoli ko‘ksiga tushgan chol kim?
Temur Samarqandiy
245. Temur Samarqandiy nima yasamaslikka ont ichgan edi?
Qilich
246. Temur samarqandiy kimning aslahasozi edi?
Amir Temurning
247. Temur samarqandiy yasagan qilichlarning dong‘i qayergacha yetgan edi?
Yamandan Yasangacha
248. Temur samarqandiy nima sababdan qilich yasamaslikka qasam ichgan edi?
U yasagan qilich bilan yolg‘iz og‘asining kallasi olinadi.
249. Temur samarqandiyning akasini kallasi nima sababdan olinadi?
Sarbador bo‘lgani uchun
250. O‘sha paytda nechta sarbadorning kallasi olingan?
32 ta
251. “ bir kishiga kimki qilich yasab bersa, gunohi azimga qoladur, tongla mahsharda jazosini tortadur”. Ushbu jumla kimning tilidan kimga qarata aytilgan?
Temur Samarqandiyga akasi aytadi
252. Temur Samarqandiy necha yil darvesh qiyofasida sarson-sargardon dunyo kezadi?
4 yil
253. “Faqir ilm dargohidan suv ichganmen, ammo Hirot-u Bag‘dod-u Damashqda ko‘p madrasai oliylarda hovli supurib ko‘p donishmandlarning xizmatlarini qilganmen”. Ushbu jumlalar kimning tilidan aytilgan?
Temur Samarqandiy
254. “ Shohlar hayoti ular barpo etgan mahobatli koshonalarga o‘xshaydi.: yiroqdan gul-gul yonib, ko‘z qamashtiradi, ichiga kirsang rutubat-u qorongilikdan ichin junjikadi”. Ushbu jumlalar qaysi asardan olingan ?
Ulug‘bek xazinasi
255. Mirzo Ulug‘bekning ko‘ngli taskin topadigan birdan-bir maskani qayer edi?
Madrasa-yu rasadxona
256. Qalandar Qarnoqiy va Ali Qushchi oltinlarni qayerga olib borishadi?
Temur Samarqandiyning g‘origa
257. Oltinlarni rasadxonadan qanday olib chiqishadi?
Lahim orqali
258. Lahim nima?
Yashirin yo‘l
259. Rasadxonadagi lahimdan kimlar xabardor edi?
Ulug‘bek va Ali Qushchi
260. Temur Samarqandiy g‘orining qayeriga oltinlarni yashirishadi?
G‘or to‘rida, gatta bor xarsang ortiga
261. Qaysi podsho Temur Samarqandiyni qatl ettirmoqchi bo‘lganda Ulug‘bek o‘rtaga tushib uni qutqarib qoladi?
Shohruh Mirzo
262. Temur Samarqandiyni Shohruh Mirzo nega qatl ettirmoqchi bo‘ladi?
Qilich yasab berishdan bosh tortgani uchun
263. Abdulatif Ulug‘bekka qanday jazo tayinlaydi?
Hajga yuborish jazosi
264. Abdulatifga yukunib Ulug‘bekdan xun talab qilgan obraz kim?
Sayid Abbos
265. Ulug‘bek uchun qarigan chog‘ida hayot in’om etgan bir oftob kim edi?
Bo‘ta ko‘zli ma’yus kanizak Bibi Yulduz
266. Bibi Yulduz kimning madrasasida tahsil olgan muslimalardan edi?
Mavlono Muhiddin
267. Murofaa so‘zining ma’nosi nima?
Diniy sud
268. Shahnatun najaf so‘zining ma’nosi nima?
Davlat posboni
269. Asarda kimning yuzi ganchdan yasalgan niqobday sovuq deb ta’riflangan?

Abdullatif
270. “ U nimasi bilandir Amir Temurni eslatar, novcha, qotma, qiyg‘ir burun edi”. Ushbu ta’rif kim haqida?
Abdulatif
271. Qaysi podsho “amir muslimin” deb atalgan?
Amir Temur
272. Asarda kim qora burgutga qiyoslangan?
Abdulatif
273. Umri jovid yo‘qdur, aslo ustuvor olam aro
Ketdi ko‘plar, biz keturmiz topqusen sen ham fano. Ushbu misralar muallifi kim?
Umar Xayyom
274. Bundan shavqat tilamoq ajdahodan jon tilamoq bilan barobar”. Ushbu fikr kim haqida?
Abdulatif
275. Ulug‘bek Abdulatifdan so‘ragan yagona narsasi nima edi?
Rasadxona
276. Ulug‘bek qolgan umrini qanday o‘tkazmoqchi edi?
“Ziji Ko‘ragoniy” ni tugatib mutolaa bilan kun kechirmoqchi edi
277. Abdulatif qayerda barcha ilm ahlini tazyiq ostiga olgan edi?
Balxda
278. Abdulatif qayerni kofir-u dahriylar makoni deb ataydi?
rasadxonani
279. Abdulatif rasadxonani nima qilmoqchi edi?
Yoqmoqchi edi
280. Ulug‘bekning fikricha kimlar qorong‘uda adashib yurgan bashariyatning qo‘lidagi mash’al edi?
Fozil-u fuzalo
281. Tarnob jangida jonbozlik ko‘rsatsa-da, muzaffar yorlig‘i Abdulazizning nomiga bitilganligini alam bilan tilga olgan obraz kim?
Abdulatif
282. Ixtiyoriddin qal’asida Atir Temurdan qolgan tillalarni Abdulatifdan kim tortib olgan edi?
Ulug‘bek
283. Ali Qushchi Temur Samarqandiydan nima iltimos qiladi?
O‘n besh- yigirma sandiq yasab berishni
284. Qaysi obraz “tilla” so‘zini eshitib ijirg‘anib yuzini burushtiradi?
Temur Samarqandiy
285. Ali Qushchi kitoblarni nechta sandiqqa joylaydi?
16 sandiqqa
286. Ali Qushchi 16 sandiqni nechta tuyaga ortadi?
4 tuyaga 4 tadan qilib ortadi
287. Odamlar ko‘ziga shubha uyg‘otmaslik uchun Ali Qushchi nima qiladi?
Sandiqlar ustidan pichan ortib go‘yo cho‘pon-cho‘liqdek bo‘lib oladi
288. Dorulsaltana ulamoi kiromlari yig‘ilib Mirzo Ulug‘bekka qanday ayb qo‘yadi?
Dahriylikda ayblaydi
289. Kitoblarni tashish uchun tuyalarni kimlar topib kelishadi?
Temut Samarqandiy va Qalandar Qarnoqiy
290. Qaysi alloma “Shayx ur-rais” deb nomlangan?
Ibn Sino
291. Bo‘lakcha ishlov berilib qog‘ozday mayinlashtirilgan ohu terisiga ko‘chirilgan kitob qaysi?
Devonu lug‘atit turk
292. Qaysi alloma malik ush-shuaro deb atalgan?
Umar Xayyom
293. Ali Qushchi kitoblarni nechta qopga soladi?
40 dan ziyod
294. Ali Qushchi saqlab qolgan kitoblar kutubxonadagi kitoblarning qanchasi edi?
O‘ndan biricha ham kelmas edi
295. Mirzo Ulug‘bek nima ovlashni xush ko‘rardi?
Arxar ovlashni
296. Kim taxtga chiqsa, unga bitta she’rni aytib podshoni inoyatlariga sazovor bo‘lgan ikkiyuzlamachi shoir kim edi?

Miryusuf Xilvatiy
297. Ajdar g‘or haqida Movorounnahrda uch kishi biladi. Bu uch kishi kimlar?
Ulug‘bek, Ali Qushchi, Miram Chalabiy
298. Temur Samarqandiy necha yosh edi?
Sakson yosh
299. Temur Samarqandiyning ikki shogirdi kimlar edi?
Bosqonbek bilan Qoplonbek
300. Temur Samarqandiy tuyalarni qayerdan topib keladi?
Zarafshon sohilidagi qishloqlarda
301. Mirzo Ulug‘bek nomini hatto qayerlarda ham bilishar edi?
Damashq, Misr, Bag‘dod
302. Mirzo Ulug‘bekka Haj safari uchun kim hamroh bo‘ladi?
Muhammad Xisrav
303. Soqoliga bitta- yarimta oq oralagan, lablaridan muloyim tabassum arimagan nimjon obraz kim?
Muhammad Xisrav
304. Qayerning mahrami ham bukri ham tug‘ma gung bir chol edi?
Bog‘i maydon
305. “ Haqiqat nedur? Dedikim – ilmdur. Dedilar: ilm nedur? Dedikim: haqiqatdur!” ushbu jumlalar qaysi asarda uchraydi?
Ulug‘bek xazinasi
306. Gunohsiz norasidaday oqko‘ngil, ko‘zlari musaffo obraz kim?
Qalandar Qarnoqiy
307. Ulug‘bekning so ‘ngi istagi nima edi? Bibi Yulduz bilan so ‘nggi bor ko‘rish
308. Ulug‘bek rasadxonaga so‘ngi bor qanday qiyofada kiradi?
Eski janda va kuloh kiyib qalandar qiyofasida
309. Ulug‘bek kimni umrimning so‘ngida topgan eng yorug‘ yulduzoim, cho‘lponim deb ataydi?
Bibi Yulduzni
310. Ali Qushchi va Mavlono Muhiddin necha yil madrasada birga tahsil ko‘rishadi?
21 yil
311. Ulug‘bekni yoshligida “qulunim” deb atagan obraz kim?
Saroymulkxonim
312. “ Yulduzlar – osmonda uchib yurgan xudoning farishtalaridur!” ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Saroymulkxonim
313. Asarda “Eski to‘n yangi xo‘jayinga to‘g‘ri kelmaydir” jumlasi kimning tilidan aytilgan?
Salohiddin zargar
314. Salohiddin zargar kimga pirim deb qo‘l bergan edi?
Nizomiddin Xomush
315. Qaysi obraz o‘z otasi tomonidan “Muallim ul- avval Arastu” deb haqorat qilinadi?
Mavlono Muhiddin
316. Qaysi obraz Ulug‘bekni “murtad shoh” deb ataydi?
Nizomiddin Xomush
317. Nizomiddin Xomush rasadxonadagi kitoblarni olib kelishni kimga topshiradi?
Mavlono Muhiddin
318. Qaysi obraz boshiga mushkul tushib irodasi sinaladigan paytda doim ko‘z yosh to‘kib qutilib ketadigan obraz kim?
Mavlono Muhiddin
319. “Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘ladi” naqli kimning tilidan aytilgan?
Ulug‘bek
320. Mirzo Boysunqarning arzanda farzandi kim edi?
Alouddavla
321. Asarda qaysi obraz xomsemiz deb ta’riflangan?
Alouddavla
322. Mirzo Ulug‘bekni kim o‘ldiradi?
Sayid Abbos
323. “Telba shahzoda” kim?
Abdulaziz
324. Ulug ‘bek vafotidan so ‘ng Abdullatif qancha paytgacha saroydan chiqmadi?
Bir hafta
325. Sayid Abbos kim tomonidan o‘ldiriladi?
Abdulatif buyrug‘i bilan Amir Jondor tomonidan

326. Amir Jondorning qaysi xislatlari Abdulatifni hadiksiratib qo ‘yadi?
Uddaburonligi va shavqatsizligi
327. Abdulatif ABDULAZIZNI KIMNING QO‘LI BILAN O‘LDIRIB YUBORISHNI KO‘NGLIGA TUGIB QO‘YADI?
Amir Jondor
328. Abdulatifning murshidi mutlaqo deb qo‘l bergan piri kim?
Nizomiddin Xomush
329. Abdulatifni rasadxonadagi kitoblarni yoqishga kim undaydi?
Nizomiddin Xomush
330. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r naqli kimning tilidan aytilgan?
Temur Samarqandiy
331. Qaysi obrazning singlisini qipchoqlar olib qochib ketgan edi?
Qalandar Qarnoqiy
332. Ikki soy o‘rtasidagi tepalikkda joylashgan ko‘hna qal’a qaysi asarda uchraydi?
“Mirzo Ulug‘bek” asarida
333. Qizlarning diliga cho‘g‘ solib yurgan xushqomat norg‘ul yigit kim?
Qalandar Qarnoqiy
334. Asarda boshidan so‘yil nilan kaltak yegan obraz kim?
Qalandar Qarnoqiy
335. “Birovning yurtida sulton bo‘lguncha o ‘z yurtingda ulton bo‘l” naqli kimning tilidan aytilgan?
Temur Samarqandiy
336. Temur Samarqandiy Qalandar Qarnoqiyga nima sovg‘a qiladi?
O‘zi yasagan xanjarini
337. Ali Qushchi qaysi zindonga solingan edi?
Ko‘ksaroy zindoni
338. “Mavlono emas, mal’un ayg‘oqchi! Alloma emas, riyokor josus!” ushbu jumlalar kim haqida?
Mavlono Muhiddin
339. Qanoti qayrilga qushchaga o‘xshatilgan obraz kim?
Miram Chalabiy
340. Kimning uyida bog‘ tomondan eshigi bor edi?
Mavlono Muhiddinning uyi
341. Asarda kim qafasga tushgan sherga o‘xshatilgan?
Ali Qushchi
342. Qaysi obraz mehr-u muhabbatdan mahrum bir maxluq deb ta’riflangan?
Abdulatif
343. Ulug‘bek yulduzlarni kuzatib toliqqanda yoki mutolaadan zerikkanida qaysi asbobni chalishni xush ko‘rar edi?
Tanbur
344. “Chorgoh”ni eshitsam, barcha ko‘hi g‘amdan qutulib, kecha tug‘ilgan go‘dakday musaffo bo ‘lamen” degan obraz kim?
Ulug‘bek
345. She’rlar mashq qilib o‘zi ham butun bir devon tuzgan obraz kim?
Abdulatif
346. Ustozi qanday takabbur bo‘lsa, u ham shunday takabbur” ushbu jumla kim haqida?
Ali Qushchi
347. Umri bino bo‘lib xastalikdan chiqmagan, qizday nimjon va nogiron obraz kim?
Mavlono Muhiddin
348. Odatda u shayx hazratlarini yo‘qlab borganida bitta qimmatbazo ziynat sovg‘a qilardi. Ushbu ta’rif kim haqida?
Salohiddin zargar
349. Qashqir darveshning asl ismi kim edi?
Dovudbek
350. Ulug ‘bek madrasasining eng yosh mudarrisi kim?
Koshiy
351. Amir Jondorni kimning o‘lim oldidagi holati doim taqib etib turadi?
Abdulazizning
352. Sadri a’zam qanday lavozim?
Birinchi vazir
353. Amir Jondor nima uchun Abdulatifdan norozi bo‘la boshlaydi?
Aslzodalar avlodidan bo‘lgan lashkarboshi tarxonday emas, zoti past bir

mahramday mayda-chuyda yumushlarni ham unga yuklagani uchun

354. Salohiddin zargarning nabirasiga ko‘z tikkan obraz kim?

Amir Jondor

355. Kimning sharofati bilan qashqir saroyda yasovul bo‘lib oladi?

Nizomiddin Xomush

356. Shahzodalar Abdulla va Abu Saidlarning taqdiri nima bo‘ladi?

Abdulatif zindonband qiladi

357. Ali Qushchi va Mavlono Muhiddinlarni Qalandar Qarnoqiy qanday qutqarmoqchi edi?

Qashqir orqali Amir Jondorga oltin-u javohirlar berib

358. Qaysi obraz ajdahoning ko‘zini cho‘qigan quzg‘un deb ta’riflangan?

Qashqir

359. Qayerlardadir yashirinib yurgan Ulug‘bekning suyukli navkari kim?

Bobo Husayn

360. Boshidanoq Abdulatifga ro‘yxushlik bermagan obraz kim?

Shayxulislom Burhoniddin

361. Qaysi obrazning ko‘zlari boyqushning ko‘zlariga o‘xshar edi?

Abdulatifning

362. Bu telba shahzodaga suyanmoq – ko‘lankaga suyanmoq bilan barobardir. Ushbu fikrlar kimga tegishli?

Amir Jondor

363. Abdulatif kimning nomini eshitsa dag‘-dag‘ titrar edi?

Bobo Husayn

364. Qalandar Qarnoqiy qancha paytdan beri dom-daraksiz edi? (Qashqir uchun)

Uch oy

365. Kalamullohni qo‘liga olib qasamyod qilgan obraz kim?

Qashqir

366. So‘ngi yillarda Ali Qushchi qanday risola yozayotgan edi?

“Risolayi dar falakiyot”

367. “ Barcha mustabid shohlarning kuchi qilichida bo‘lsa, ahli donishlarning iqtidori shundakim – ular zulmatdan so‘ng oftob chiqishini biladir” ushbu jumlalar qaysi asardan olingan?

Ulug‘bek xazinasi

368. Qaysi obrazni yoshligida onasi “Bo‘talog‘im” deb erkalatar edi?

Ali Qushchini

369. Yulduzlarning tutilishi nima deb nomlanadi?

Kusuf

370. Qaysi alloma muallimul avval deb atalgan?

Abu rayhon Beruniy

371. Asarda osmoni falak nimaga o‘xshatilgan?

Ummonga

372. Asrda yulduzlar nimaga o‘xshatilgan?

baliqqa

373. Asarda ollohning shamchiroqlari deyilganda nima nazarda tutilgan?

Yulduzlar

374. Ko‘ksaroy zindonini kim qurdirgan edi?

Amir Temur

375. Ali Qushchi shogirdlari xat yozib undan nima xohlashini so‘raganida, Ali Qushchi qanday javob beradi?

Onasining ahvolidan xabar olishini va qog‘oz so‘raydi

376. Asarda lim telba bo‘lib qoladi?

Mablono Muhiddin

377. Tillabibi qancha payt yo‘lga termulib oxiri joni uziladi?

Besh oy

378. Ali Qushcini zindondan qanday qilib qutqarishadi?

Soxta yorliq tayyorlab, uni go‘yo qatl qilishga olib chiqishayotgandek bo‘lib

379. Qalandar Xurshidabonuni qayerga yashiradi?

Bobomurod mirobnikiga

380. Sulton Jondorning uyida kimlar xufya uchrashib, Abdulatifga qarshi fitna rejasini tuzishadi?

Mironshoh, Shayxulislom Burhoniddin, Bobo Husayn Amir Jondor

381. Fitnachilar Abdulatif o‘rniga kimni taxtga o‘tqazishmoqchi bo‘ladi?
Abu Saidni
382. Abdulatif so‘ngi bor Ali Qushchini yoniga chaqirishidan maqsadi nima di?
Zoyichaga qarab o‘z taqdirini bilib berishini so ‘ramoqchi edi
383. Abdulatif Ulug‘bek jiyanlarining qaysi biridan ko‘proq hadiksirar edi?
Abu saiddan
384. Vohidi zamon so‘zining ma’nosi nima?
O‘z davrining yagonasi
385. Amir Jondorning Abdilatifdan yuz o‘girishiga nima sabab bo‘ladi?
Abdulatif Xurshidabonuga ko‘z tikkani
386. Tuzoqdan qo‘rqmay o‘zini tariqqa urgan bedanaga o ‘xshatilgan obraz kim?
Qalandar
387. Xurshidabonu qayerdaligi xabarini Jondorga kim yetkazadi?
Qashqir
388. Xurshidabonu qaysi qishloqda yashiringan edi?
“Kuydan tepa” qishlog‘i
389. Abdulatifning tushida unga o‘z boshini in’om etgan obraz kim?
Amir Jondor
390. “ Padarkush... toj-u taxt olti oydan oshmaydur” ushbu jumlalar kimning kitobida yozilgan edi?
Nizomiy Ganjaviy
391. Nizomiy kitobini Abdulatif nima qiladi?
O‘tga tashlashni buyuradi
392. FitnachilaR Abdulatifni nima qilishadi?
Qatl ettirib boshini kesib madrasa darvozasiga osib qo‘yishadi
393. Abdulatif o‘rniga kimni taxtga o‘tqazishadi?
Zindonda yotgan Mirzo Abdulloni
394. Ali Qushchi Qalandar Qarnoqiyga nima sovg‘a qiladi?
Ulug‘bek bergan javohirlardan bir hovuchini va bitta quyma tilla
395. “ bu muqarrabi sultonlar ichinda oltung‘a sotulmaydurg‘oni yuqtur” ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
Temur Samarqandiy
396. Qashqirni kim o‘ldiradi?
Qalandar
397. Xurshidabonu kim bilan sha’riy nikoh o‘qitgan edi?
Qalandar bilan
398. Qalandar qanday vafot etadi?
Amir Jondor o‘q uzib yaralaydi
399. Xurshida Bonu qanday vafot etadi?
Og‘u ichadi
400. Xurshida bonuning so‘nggi istagi nima edi?
Qalandar bilan bir go‘rga qo‘yishlarini istaydi
401. Xurshida bonu og‘uni qayerdan oladi?
Haramda payti toptirib kelgan lekin ichishga ulgurmay uzugining ko‘ziga yashirib qo‘ygan edi
402. Qalandarni qayerga dafn etishadi?
Tillabibi qabri yoniga
403. Asarda nima ulkan gulxanga o‘xshatilgan?
Ufq
404. Kimlar tez-tez kelib Ali Qushchidan yashirilgan kitoblarni topib berishni so‘rashadi.
Abusaid Mirzo va Xo‘ja Ahrorning xufyalari
405. Asar qaysi yillarda yozilgan?
1970-1973